

Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishqi jo'sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi.

**I.KARIMOV**

*Vatan yagonadir, Vatan bittadir!*

*Tong*

**YULDUZI**

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2008-yil

14-iyul

N:28

(66673)



**Tarvuzim tilim-tilim,  
Boli yoradi tilim.**

## DUSHANBADAN

### EZGULIK ELCHISI

Qadrli bolajonlar! Xabaringiz bor, hukumatimiz tomonidan bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga katta e'tibor qaratilgan. Zero, musiqa ezgulik elchisi demak.

Kuni kecha matbuotda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yana-da yaxshilash bo'yicha 2009-2014-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risida»gi qarori e'lon qilindi.

Unga ko'ra, yosh avlodning iste'dodini har tomonlama kamol toptirish, yoshlarning milliy va jahon musiqalari, tasviriy san'atining yuksak namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun zarur sharoitlarni yaratish ko'zda tutilgan. Shuningdek, boshlang'ich musiqiy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, bolalar musiqa va san'at maktablarini rivojlantirish hamda zamonaviy moddiy-texnik bazasini shakllantirish, ularni musiqiy madaniyat va san'at sohasidagi yuqori malakali pedagog kadrlar va mutaxassislar bilan ta'minlashdir.

Davlatimiz hamisha Siz aziz bolajonlarning hech kimdan kam bo'lmasligingiz uchun qayg'urib keladi. Sizga qulay sharoitlar yaratishga intiladi. Siz esa bunga javoban yurtga munosib farzand bo'lishga harakat qiling. Namunali xulqingiz, a'lo o'qishingiz bilan javob bering.

## BUNI XUSHKABAR DESA BO'LADI

Koreya Respublikasining poytaxti Seul shahrida Bolalar suratlari XIV xalqaro ko'rgazma-biyennalisi bo'lib o'tdi. Unda qatnashish uchun jahonning 85 mamlakatidagi 4 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalardan qariyb 24 mingta ariza kelib tushdi. Mazkur nufuzli ko'rgazma asosini tanlovning g'olib va sovrindorlari bo'lgan 200 nafar yosh rassomning eng sara asarlari tashkil etdi. Ular orasidan o'zbekistonlik yosh tasviriy san'at ustalari 9 yoshli Marina Mixaylyansning «To'y» hamda 11 yoshli Roman Golubyevning «O'zbekiston mening Vatanim» asarlari ham munosib o'rin oldi.

\*\*\*


Bu xushxabardan shodlanib turganimizda, Uspenskiy nomidagi Respublika maxsus musiqa akademik-litseyi o'quvchisi Nodira Dadamammedova Budapesht shahrida o'tgan yosh pianochilar xalqaro tanlovida birinchi o'rinni egallaganini xabar qilindi.

*Yurtimizning iqtidorli o'g'il-qizlari qo'lga kiritayotgan bunday yutuqlar O'zbekiston nomini dunyo kengliklarida baralla jaranglashida munosib hissa bo'ladi, deb umid qilamiz.*

## DUSHANBAGACHA

Toshkentning 2200 yilligi oldidan

## SUYAKDAN YASALGAN QALAM



Bolalikdan o'z tarixingizga qiziqsangiz, hayotdan juda katta ma'no topib yashaysiz. Birgina Toshkentni oling. U boy tarixga ega shahar. Xorijdan kelgan sayyoh sizdan uning tarixi haqida so'rab qolsa, Shoshtepadan topilgan qalam to'g'risida gapirib bersangiz bormi, ota-bobolarimizning ana o'sha davrlarda ham xattotlik bilan shug'ullanganidan hayratda qolishi turgan gap.

Darvoqe, mazkur topilma qalam 15 sm. bo'lib, bir tomoni yozish uchun uchli qilib, ikkinchi tomoni esa ilon boshiga o'xshash qiyshiq ko'p burchak shaklida kurakcha qilib yasalgan. Bu narsa o'sha zamonlarda ham ilmga yetarli e'tibor berilganidan ham guvohlik beradi. Bilib qo'yingki, aziz o'quvchi, tarix hujjatlar bilan noyob topilma sifatida qadrlidir.


Shahribonu IMOMOVA,  
Buxoro viloyati

## MAKTABDAN MAMNUN QAYTDIM

Har yili maktablarda so'nggi qo'ng'iroq ovozi yangraydigan kunlarda hayajonim behad ortadi. Sababi, qo'ng'iroqning sadosi maktabga ilk qadam qo'ygan onlarimni, bizni mehr bilan qarshi olgan birinchi o'qituvchim Mamlakat opani, eng beg'ubor kunlarim o'tgan maktab damlarimni yodimga solaveradi.

Ana shunday iliq hayajonlar og'ushida o'zim tahsil olgan 6-o'rta umumta'lim maktabi sari yo'l oldim.

1979-yilda yangi binoga ko'chib o'tgan maktabimiz yana-da ko'rkamlashib ketibdi: biz parvarishlagan mevali daraxtlar hosilga kirgan, ekan gullarimiz ko'zlarni quvnatadi. O'quv yilining yakuni, sinovlar ayni qizigan palla emasmi, maktabimiz rahbari Qulmuhammad aka Yoraliyevning ham, tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor muovini M.Rayanovanning ham qo'li-qo'lga tegmaydi. Birinchi o'qituvchim Mamlakat opa bilan bo'lgan uchrashuvimiz hayajonini so'z bilan izohlab berolmayman. Miriqib suhbatlashdik, maktabda




kechgan maroqli kunlarimizni esladik. Tadbirlar harakati bilan yelib-yugurgan bir qiz e'tiborimni tortdi. Tanishib oldik: maktab «Kamolot» tashkiloti sardori Xolida Daminova ekan. U maktabning eng iqtidorli, faol qizlaridan edi. O'qishlari a'lo, raqsga tushar, she'rlar mashq qilar, ajabtovur ovozi ham bor. U qizning sport sohasidagi yutuqlariga havas qilsa arzigudek edi.

12 yoshli Sarvinoz Malikova ham faollikda undan qolishmas ekan.

Yosh bo'lsa-da, xuddi kattalardek teran fikrlaydi. Sportning taekvando turi bo'yicha viloyat miqyosida bo'lib o'tgan musobaqada 3-o'rinni qo'lga kiritib, maktabimiz sharafiga munosib himoya qilibdi...

Qadrdon maktabimdan ana shunday iqtidorli o'g'il-qizlar yetishib chiqayotganidan qalbim faxr va iftixor tuyg'ulariga to'ldi.

Nodira MURODOVA,  
Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumani



Eh, yozning gashti boshqacha-da!

Ha, nimasini aytasan!?

## KO'NGILGA QULOQ TUTSA

Menimcha, har bir o'quvchi o'z kelajagini o'zi yaratadi. Shuning uchun ham har tarafdin o'ylab, o'zimiz sevgan kasbni tanlashimiz lozim. Lekin hozirgi kunda ota-onalar farzandlarining ko'ngliga qaramay yo'l tutmoqdalar. Aniqrog'i, farzandlari qiziqishlarini inobatga olmay, o'z orzu va xohishlariga ko'ra, ularga o'zlari kasb tanlab berishlari g'alati. To'g'ri, har bir ota-ona farzandiga faqat yaxshilikni rayo ko'radl. Lekin bu borada, ya'ni kasb tanlashda yoshlarning ham ko'ngliga quloq tutish kerakmikan?

Umida AHMEDOVA,  
Namangan viloyati

Kattalar, e'tibor bering!



## QIZIQARLI

### DUNYO

Inson tanasining 60%i suvdan iborat.

\*\*\*

Inson tanasida qon oqadigan tomirlarning umumiy uzunligi 100.000 metr.

\*\*\*


Katta yoshdagi odamning yuragi sutkasiga 10 ming litr qonni haydab beradi.

\*\*\*

Insondagi asab tizimi 10 milliardga yaqin neyrondan tashkil topgan.

\*\*\*

Angliyada balandligi 30,5 metrlik minora barpo etildi. U «Lego» kubiklari yordamida qurildi. Monument kemani eslatadi. Uni qurishda 500 mingta detaldan foydalanishdi. Qurilishda Vindzordagi «Legolend»ning kichkintoy ziyoratchilari ishtirok etdi.



## «OSKAR» MUKOFOTI

Har yili AQSH kino artistlari eng yaxshi ijro etilgan rollari uchun «Oskar» mukofoti – oltindan yasalgan haykalcha bilan taqdirlanadilar.

1931-yilgacha ushbu haykalcha biror-bir nom bilan aytilmagan. O'sha yili kinomotografiya fan va san'ati akademiyasiga kutubxonachi etib missis Margaret Grek ismli ayol tayinlangan edi. Bu yerda u birinchi marotaba dong'i ketgan oltin haykalchani ko'rib qoldi va «U nimasidir bilan mening Oskar amakimga o'xshab ketar ekan», deb aytdi. Uning bu gaplarini bir jurnalist eshitib qoldi va ertasiga gazetada «Oskar amaki haqida» deb nomlangan felyeton chiqardi. Shundan so'ng, Oskar ismi haykalchaga mahkamlanib qoldi.



Rus tilidan  
Hilola SALOYEVA tarjimasida

## XITOIY XALQ HIKMATLARI

Ko'zingni tez och,  
Biroq, og'zingni tez ochma.

\*\*\*

Tinchlik va xotirjamlik! Bu ikki kalima ming misqol quyma tildan afzal.

\*\*\*

Yaxshilik yashiringan eshikni ochmoq mushkul, yomonlik yashiringan eshikni yopmoq mushkul.

\*\*\*

Hali yurishni bilmaydi-yu, yugurishni havas qilib qolibdi.

\*\*\*

Xotirjam kishiga kapa ham jannatdek tuyuladi.

\*\*\*

Bosh ko'tarib odamlardan sadaqa so'raguncha, bosh egib ona yerdan hikmat tila.

Sayfi SODIQ tayyorladi



**Hamza IMONBERDIYEV**  
(1954 – 1997)  
«Quvnoqlar quvonchi»,  
«Shokoladxo'rlar», «G'aroyib pufak»,  
«Kulgi shaharchasi» singari o'ndan  
ortiq kitoblari nashr etilgan.



**Dilshod RAJAB**  
(1964-yilda tug'ilgan)  
Uning «Qorqiz sovg'a keltirdi»  
(1990), «Hazilkashlar davrasida»  
(1991), «Otamning bog'i» (1996),  
«Daryo ko'ngil» (1997), «Alifbo»  
(2001) to'plamlari chop etilgan.



**Orif TO'XTASH**  
(1976-yilda tug'ilgan)  
Uning «Har doim bo'lsin  
quyosh», «Boychechak», «Dovon  
oshgan avlodlar», «Vatanim, deb  
seni, uyg'ondim», «Quyosh yo'li»  
kabi she'riy to'plamlari chop  
etilgan.



**Erpo'lat BAXT**  
(1971-yilda tug'ilgan)  
Po'lat Ermatovning  
«Quyoshning tabassumi» nomli  
kitobi, «Istiqolol umidlari»  
almanaxida turkum she'rlari e'lon  
qilingan.

## BOBONGIZ BIR YAXSHI GAP AYTGANLAR

Bu dunyoda yashashning o'zi katta ilm, katta san'at. Ana shu ilm va san'atni egallaganlar hayotda nolimasdan yashaydilar. Hazrat Alisher Navoiy bobongiz shunday lutf qilganlar:


*Sihat tilasang, ko'p yema,  
Izzat tilasang, ko'p dema.*

Aqli bola, o'smir yigit-qiz ulug' mutaffakirning mazkur nasihatini o'qib, u zotning me'yor haqida to'xtalganini darhol anglab oladi. Darvoqe, hayotda eng avvalo, har narsada me'yorga rioya qilinarkan, unday ishda baraka, taom yeyishda esa lazzat bo'ladi. Me'yorga rioya qilish, birinchi navbatda, uzoq yashash garovi ekanligini deyarli barcha buyuk insonlar – allomalar, olimlar, shifokorlar, faylasuflar qayta-qayta ta'kidlab o'tishgan. Ularning o'zlari ham to'yib ovqat yeyishdan, har xil ovqatlardan tiyilganlar. Ma'lumki, ovqat me'yoridan oshsa, ortiqchasi zaharga aylanadi. Xuddi shunday, ortiqcha gap odamga ortiqcha tashvish keltiradi. Yoki ortiqcha zo'riqish tanaga ziyon-zahmat yetkazadi.

«Me'yor tabiatning ittifoqdoshi, sog'liqning posbonidir. Binobarin, yeb-ichishda ham, yurish-turishda ham va hatto muhabbatda ham me'yorni saqlang!» – degan arab shoiri va olimi Abul Feroj. Me'yorda gap ko'p. U quvonchga quvonch qo'shib, huzur-halovatni oshiradi. Chunki oziga qanchalik qanoat qilsak, muhtojlikka ham shunchalik bardoshli bo'lamiz. Yana bir jihati, inson kelajakda sog'lom bo'lishi uchun emas, balki bugungi kunda tetik, bardam yurishi uchun ham me'yorni saqlay bilishi kerak. Hayot falsafasini yaxshi anglagan Alisher Navoiy bobongiz bir yaxshi gap aytgan ekanlar, unga amal qilsak, faqat o'zimizga foyda bo'ladi.

**SHAHNOZA tayyorladi**

## OQQUSHLAR – MEHR-MUHABBAT TIMSOLI



Oqqushlarga yaxshilab e'tibor berganmisiz? Sokin bog'dagi moviy ko'lda oqqushlar suzib yuribdi. Oq liboslarda go'yo baxtiyor kelin-kuyovga o'xshab ketadi. Nega endi tabiat ularni oq rangda tasvirlagan ekan, balki beg'ubor sevgi, sadoqat, vafo, bokiralik ramzlarini shu qushlarda aks ettirmoqchi bo'lgandir. Bu qushlarning ayrim xususiyatlari insonni chuqur o'ylashga undaydi. Juft bo'lib suzganda xuddi vafo va raqs uyg'unlashuvi yuz beradi-yu, nogoh ularning bu harakatlari asiriga aylanasiz. Ular bir-biriga boshlarini qo'yib, mehribonlik ko'rsatadi, ardoqlaydi, sevadi. Tumshuqlari bilan suyuqliksining patlarini

taraydi.

Oqqushlar o'z juftiga bir umr vafodor, agar ularidan birining hayot sha'mi so'nsa, ikkinchisi ham bu dunyoni tark etadi. Yaratgan qushlarga shunday fazilatlar berib insonlar o'rnak olishi uchun yaratgan ekan, nega tabiatning gulto'ji bo'lgan inson bir-biriga xiyonat qiladi, aldaydi?! Nega shu besh kunlik umrida o'zgalarning ko'ngliga ozor beradi, umidvor qalblarni noumid qiladi?! Insonni hammadan, hatto farishtalardan ham ulug'lasa-yu, biz insonlar bir-birimizga mehribonlik ko'rsata olmasak, namli ko'zlarni artmasak. Axir, biz Hazrati inson farzandlarimiz-ku!..

**Dilobar MUSAJONOVA**

Qashqadaryo viloyatining Miroqi yaqinidagi Sho'rhasan qishlog'ining tog'i orasida joylashgan ko'l haqida shunday hikoya qiladilar: Hasan ismli bir yetimcha yolg'izgina biyasini shu ko'l bo'yida boqib yurganida, ko'ldan bir ayy'ir chiqib kelib, biyaga qarab chopadi. Bu sirni hech kimga aytmaslikni Hasanga tayinlab, o'zi yana suv ichiga kirib g'oyib bo'ladi. Biya erkak qulun tug'adi. Hasan esa bu sirni saqlay olmay, aytib qo'yadi. Biya qulunini ko'l yoqasida o'tlatib yurganida, ko'ldan haligi ayy'ir chiqib, qulunni tishlab suvga olib kirib ketadi.



Shamsiddin degan amakim bor. Yoshi saksondan oshgan. U qirq yil Qoratog'da yilqi boqib, yovvoyi hayvonlarning hayot tarzini obdon o'rgangan. Bo'rilar ko'p bora to'qnash kelgan. Bo'rini u qashqir deydi.

Bo'ri ko'p chanqaydi va tez-tez suv ichadi, – deydi amakim, – shuning uchun u suvga yaqin yerda bolalaydi. Bo'ri bolasi og'zida arradek tishi bilan tug'iladi. Qashqir o'ta chidamli,

charchamaydigan hayvon. U kuniga 100-150 kilometr yerni ko'rdim demay bosib o'tadi. Men shuncha yil tog'-tosh kezib, bo'rilar qavmidek bir-biriga mehribon jonzotni ko'rmadim. Bir kuni uyurlarni to'dalab olay deb qirma-qir aylandim. Bilasan, otlar uyur-uyur bo'lib o'tlaydi. Har to'dada bir ayy'ir bo'ladi. U o'z uyurining xo'jasi. Ayy'ir bor to'daga qashqir yo'lamaydi. Ayy'ir oldiga kelganni tishlab, ortiga o'tganni

quvib yuboradi.

Yaylovni aylanib chiqdim. Otlarning bari soyliqda, o'zanlarda o'tlab yurgan ekan. Ko'nglim joyiga tushdi. Bir tepalikka chiqib yonboshladim. Xurjundan qimiz olib bir kosa simirdim. Saman otning suvlig'ini olib o'tlagani qo'ydim. Yozning jazirama pallasi bo'lsa-da, havo salqin. Tog' tarafdin g'irillab epkin esardi.



Anchagacha pastdagi soyga tikilib yotdim. Bir zamon soy bo'yida yolg'iz qashqir ko'rindi. U o'ta miqti, ko'k eshakday kelardi. Bu qashqirlarning tarloniga o'xshaydi, qulunlarga yopishmasin, deb darrov o'rnimdan turdim. Otga mindim. Miltiqni o'qlab pastga qarab endim. Biroz yurib durbin soldim. Qarasam, boyagi tarlonning ketida yana ikki-uch bo'riyam kelayapti. Biroq, ularning yurishi ajoyib edi. Shuncha yoshga kirib bundayin manzarani birinchi marta ko'rib turishim. Soy bo'yida to'rt qashqir. Oldinda atrofga ko'z-quloq bo'lib tarlon ketayapti. Undan keyingi ikki bo'ri uzun xodani ikki uchidan tishlab olgan. Uchinchi qashqir oldingi ikki oyog'ini xodaga tashlab orqa oyoqlarida hakkalab borayapti. Orqadagi bo'ri bo'lsa, u

yoq-bu yoqqa alanglab, ularni qo'riqlab ketayotir! Azbaroyi hayron qolganimdan yoqamni ushladim. Bo'rilar juda oriyatli bo'ladi. Shuning uchun ular qopqonga tushib qolishsa, ko'pincha oyoqlarini o'zlari g'ajab tashlab, qutulib ketadilar. Men ko'rgan yarador qashqir ham yaqinda qopqondan ozod bo'lganga o'xshaydi. U oyog'ini tishlab uzgan-u, ulib qavmlarini chaqirgan. Ana endi ovchining qo'li yetmaydigan yerga ketayapti.

Miltiqni qo'lga olgan edim, otmadim. Bo'rilar ko'zdan yo'qolguncha qarab turdim. Keyin boshimni qashlab o'ylanib qoldim. Qani endi odamlar ham bir-biriga shunday mehribon bo'lsa, dedim ichimda. Ba'zan ko'chada yiqilib yotgan kishini ko'rsak, yurak-puragi yomon bo'lib qolgandir bechoraning, deb yoniga yo'lamaymiz. Hah, yana ichdingmi, yaramas, deb o'tib ketamiz. Shu yaxshimi?


Yo'q, yaxshi emas, degim keldi-yu, indamadim.

**Sa'dulla SIYOYEV**

## KAMOLAGA YOQQAN OROMGOH



«Avtomobilchi» oromgohi haqida eshitganmisiz? Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanining purviqor tog'lari bag'rida joylashgan shinamgina oromgoh ana shunday nomlanadi. Toshkent shahar yo'lovchi trans aksionerlik jamiyatiga qarashli bu oromgoh 320 o'rinli bo'lib, ayni damda 460 nafar o'g'il-qiz bu yerda dam olmoqda. Oromgoh hududi ozoda va salqinligi, yam-yashil daraxtlari, turfa gullari bilan e'tiboringizni tortadi.



– Tong otishi bilanoq 8 ta guruhda tekshiruv o'tkazishni boshlaymiz, – deydi oromgoh shifokori Mohira opa Akbarova. – Bunda menga hamshiramiz Dilorom Yodgorova ko'maklashadi. Har bir bolaning tana haroratini o'lchab, o'pkasi, yurak urishini eshitib ko'ramiz. Agar bolalarning sog'lig'idan shikoyati bo'lmasa, ularga cho'milishga, turli sport to'garaklariga qatnashishlariga ruxsat beramiz.

### BIR JOYDA KO'KARGAN DARAXT

Ana shu go'zal maskanga 23 yildan beri Yo'ldosh Ochilov rahbarlik qilar ekanlar. Uzoq yillar davomida bir joyda rahbarlik qilish kishidan katta sabr talab qiladi. Buni direktorning oromgoh haqida faxr bilan aytgan so'zlaridan fahmladik:

– Ko'rib turganingiz barcha mevali daraxtlar-u archalarni 23 yil

oldin o'z qo'llarim bilan ekanman. Daraxt bir joyda ko'karadi, deganlaridek, har yili bahorda daraxtlar tagini yumshatib, shoxlarini kesib, shakl beraman. Bir necha yildirki, ekan ko'chatlarim soyasida bolajonlar nafaqat dam oladilar, balki g'arq pishgan shirindan-shakar o'rik va olmalarni o'z qo'llari bilan terib yeydilar. Bunday manzarani ko'rib, quvonib ketaman. Oromgohda dam olib ketayotgan bolalarning o'zlari ham, ularning ota-onalari ham shu kungacha faqat minnatdorchilik bildirib ketadilar. Biz ham ularning ishonchlarini oqlab, bolajonlarga bundan ham yaxshi shart-sharoitlar yaratishga harakat qilamiz. Birgina men emas, balki oromgohda ishlayotgan tarbiyachilar, oshpaz-u shifokorlar ham har bir bolaga alohida e'tibor qaratadilar.



Darhaqiqat, oromgohda tartib, intizom, o'z ishiga bo'lgan mas'uliyat nafaqat tibbiyot xodimlari, balki tarbiyachilar gap-so'zlari, qilayotgan ishlaridan yaqqol namoyon bo'ldi.

«Yosh rassom» to'garagining rahbari Zaynuddinova Zilya Azimovna aytishicha, har bir bolaga o'z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda mustaqil rasm chizishni buyurur ekan. Shaxmat-shashka o'ynash sir-asrorlarini bolajonlar to'garak rahbari Akbar Musashayxovdan o'rganib olibdilar. Hatto tikuvchilikka qiziquvchi qizlar Turg'unova Go'zal Qahramonovnanadan munchoq tikishni o'rganishga ham ulguribdilar.

Mo'jazgina kutubxonada kitobxonlar ko'pligi bizni quvontirdi. O'zbek xalq ertaklaridan tortib, jahon adabiyoti durdonalaridan namunalar ushbu kutubxonada juda ko'p edi. Berilib kitob mutolaa qilayotgan 41-maktab o'quvchisi Fazilat Sobirova oromgohdagi eng sevimli joyi kutubxona ekanligini ta'kidlab o'tdi.

### SUVDAGI CHAQQON QIZLAR

Quyosh nurlari tikkaga kelganda, 6-guruh qizlari basseyn tomon yo'l oldilar. Biz ularga hamroh bo'ldik. Eldor Mahkamov qizlarga suvda to'p o'ynashni o'rgata turib, ularga cho'milish vaqtlarini belgilab berdi. Qizlar orasida suvda chaqqon harakat qilib, to'garak rahbarining olqishiga sazovor bo'lgan qizchani suhbatga tortdik. O'zini Kamola O'rinboyeva deb tanishtirgan qizaloq Sobir Rahimov tumanidagi 196-maktabning 4-sinf o'quvchisi ekan. U 6-guruhdan bo'lib, o'zi qatnashayotgan to'garaklar haqida so'zlab berdi:

– Suvda ko'ptok o'ynash yerda ko'ptok o'ynashga qaraganda qiyinroq. Lekin otilgan ko'ptokni chaqqonlik bilan ushlab olish barchamizga yoqadi. Bizning o'yinimizni tarbiyachi opalarimiz ham kuzatishadi. Oromgohdagi tarbiyachi opalarimizning mehribonliklari uchun ham, bu oromgoh menga yoqdi. Masalan,



men «Yosh rassom» to'garagiga qatnashib, quyoning rasmini chizdim. Rasmdagi quyonni oppoq va momiq qilib tasvirlashga harakat qildim. Chunki quyonlarning hammasi men chizganimdek chiroyli bo'lishadi.

Kamolaning so'zlariga dugonasi Iroda Mahmudova qo'shimcha qildi:

– Men Shayxontohur tumanidagi 159-maktabning 6-sinf o'quvchisiman. Oromgohdagi to'garaklar maktabdagi to'garaklardan katta farq qiladi. Bu yerdagi to'garaklarda biz yangi do'stlar orttiramiz. Ular bilan to'garaklarga birga qatnab, vaqtimizni mazmunli o'tkazamiz.



«Ming marta eshitgandan, bir marta ko'rgan afzal» maqoliga amal qilgan holda oromgohni bir boshdan ko'zdan kechira boshladik. Katta tarbiyachi Magzumova Zuhra Aliyevna bizni oromgohda faoliyat yuritayotgan to'garaklar bilan tanishtira turib, shunday ma'lumotlarni keltirib o'tdilar:

– Ta'tilda bolalar faqat dam olmay, o'zlari qiziqqan mashg'ulotlar bilan ham shug'ullanishlari kerak. Shularni hisobga olgan holda, oromgohda 10 ga yaqin to'garak faoliyat yuritmoqda. Yangi kelgan bolajonlar avvaliga, ta'tilda ham to'garakka qatnashmizmi, deya savol berishar edi. Lekin bir-ikki kun o'tib, to'garaklarga o'zlari qiziqib qatnashishyapti. Bulardan «Yosh rassom» to'garagi, shashka-shaxmat, tennis, munchoq tikish kabi to'garaklari bolajonlar bilan gavjum. Hozirda 8 ta guruhning har birida 50 tadan bola bo'lib, ularning har biri qat'iy kun tartibiga amal qilishadi. Vaqtida ovqatlanib, qolgan paytlarda turli to'garaklarga qatnashadilar. Ularning salomatligini shifokorlar nazorat qiladilar.


### O'G'IL BOLALARGA OFARINI!

Oromgohdagi qizlarning aksariyat qismi to'garaklarga qatnashar ekanlar. O'g'il bolalar-chi, deysizmi? O'g'il bolalar nima ish bilan mashg'ul ekanlar, deya ularning yotoqxonalariga kirib bordik. Yotoqxonada, krovatlar tartib bilan yig'ilganligini ko'rib, o'g'il bolalarga ofarin, dedik. 2-guruh tarbiyalanuvchisi Abdullo Qayumov bu tartib-intizom tarbiyachi Nodira Mahmudova tomonidan nazorat qilinishini aytib o'tdi. Uning aytishicha, uyida xonasini tartibga keltirmaydigan bolalar oromgohda ancha tartibli bo'lib qolishar ekan. O'g'il bola bo'lsalar ham, o'rinlarini chiroyli yig'ish, changartish ularning qo'llaridan kelishini isbotlab berishibdi. Tarbiyachilar ham ulardan mamnun.

Oromgohda bolalar uchun filmlar namoyish etilishi haqida 8-guruh qizlari Nargiza Abdurasulova, Dildora Yusupova gaplaridan ma'lum bo'ldi. Bunday filmlar bolajonlar talablariga binoan qo'yib berilar ekan. Shunday ekan, hech ikkilanmay oromgohda zerikayotgan bolani uchratmadik, deya olamiz.

Bu yerdagi dam oluvchi o'g'il-qizlarga yaratilgan sharoitlarni, mehribon tarbiyachilarni ko'rib, kayfiyatimiz ko'tarildi. Bolajonlar bilan xayrlasha turib, ularga ta'tillari hamisha ana shunday zavqli va maroqli o'tishini tilab qoldik.

Gulyuz BAHODIR qizi



**Shunday murabbiylar bo'ladiki, ularning mashg'ulotlariga kelish uchun tashviqot ishlari keragi yo'q. Qashqadaryolik murabbiy Farhod aka ana shunday mutaxassislardan.**

Sambo bo'yicha jahon kubogi va chempionati sovrindori Farhod Xo'janov ayni paytda Shahrizabz shahridagi yangi gimnastika zalida 100 nafarga yaqin o'g'il-qizlarga mashg'ulotlar o'tyapti. Bu murabbiyni ko'pchilik «Norcha polvon» nomi bilan tanidi. Chunki uning bobosi Norcha bobo ham kurashda yelkasi yer ko'rmagan polvon bo'lgan. Bobosining sabog'ini olgan Farhod akangizni ham qishloqdoshlari to'y-kurashlarda 18 nafar polvonni yiqitgan polvon shu yigit-da, deya tan olishadi. Shundan keyin el-ulus uni ham bobosining nomi bilan atay boshladi. Shahrizabzning eski «Qopqon» qishlog'ida o'sgan Farhod akangiz Xolbobo Ovloqulov va Rajabali Boboyorov saboqlaridan bahramand bo'ldi. Olti yoshdan qishloq to'ylarida pishgan bolakay uchun sport dargohiga kirish unchalik qiyin kechmadi. U Toyloqdagi olimpiya zahiralari kollejida Aleksandr

## NORCHA POLVON

Yermeshkindan sambo sport turini puxta o'rgana boshladi. 1995-1998-yilgacha Osiyo chempionatida sovrindor bo'ldi. Shu yillar unga yana jahon kubogida kumush medalni ham hadya etdi.

2002-2008-yillarda Rossiyaning Irkutsk shahrida murabbiylik qilgan Farhod aka shu yilning mart oyida yurtiga qaytdi. Qashqadaryolik bolalar uchun «Ali» sport klubini yaxshi niyatlar bilan ochdi. Bugun yangi klubda bolalar sportning dzyudo, sambo, milliy kurash turlari bilan shug'ullanmoqda.

Ko'pni ko'rgan, kurash hadisini bexato o'qiydigan Norbobo Murodov klub prezidenti etib tayinlandi.

– Endi bu sa'y-harakatlar shahrizabzlik Shavkat Jo'rayev, Abduqodir Pirmatov, Zokir Sharipov singari dongdor polvonlar izidan

borayotgan bolalarga katta maktab bo'ladi. Chunki makonimizning havosi bo'lakcha. Sportchi yigitlarimiz bu yerda 16-17 yoshgacha olovdek lovullab o'sadilar. Biroq, tumanda yirik sport



markazining yo'qligi bois, yigitlarimiz poytaxtga borishning ilojini topolmagach, sportni tashlab ketishga majbur edilar. O'ylaymizki, bu imkon yoshlarimizga albatta asqotadi. Chunki yurtimizda ishlagan odamga ish, ishlamaganga tashvish topilaveradi, – deydi Norcha boboning nabirasi Farhod akangiz.

## XAYRULLA



## AKANING XAYRLI ISHLARI

**Poytaxtdagi 14-sonli gimnastikaga ixtisoslashgan olimpiya zahiralari bolalar va o'smirlar sport maktabi respublikamiz sport gimnastikachilarining sevimli dargohiga aylangan.**

Bu yerga mamlakatimizning turli viloyatlaridan jamoalar tashrif buyurishadi. Germaniyadan keltirilgan «GYMLOYA» sport gimnastikasi jihozlarida o'quv-mashg'ulot yig'inlarini o'tkazishadi. Xayrulla aka Jabborovni ilk bor ikki yil oldin shu maktabda uchratgandim.

O'shanda u Qashqadaryo viloyati sport gimnastikachilarini «Umid nihollari – 2006» sport musobaqalariga tayyorlash uchun tashrif buyurgandi. Uzoq vohadan kelgan o'g'il-qizlar zamonaviy jihozlarda mashq bajarish bilan birga poytaxtlik gimnastikachilarning mashg'ulotlarini kuzatib, bilim va tasavvurlarini oshirishadi.

O'z navbatida murabbiy Xayrulla aka tajribali murabbiylardan sport turi sinoatlarini o'zlashtirardi. Biz bu maktabda jahon rekordchisi sport gimnastikasi malikasi Oksana Chusovitina, Jahon chempionati sovrindori Anton Fokio kabi yulduzlarni kamolga yetganligini yaxshi bilamiz.

Sport maktabiga Germaniyadan jihozlarning keltirilishiga sababchi bo'lgani bois, bu maskanni «Chusovitining gimnastika maktabi» ham deyishadi.

Yana Xayrulla Jabborovga qaytamiz. Toshkentda o'tkazilgan yig'inlar Qarshi shahrida o'tgan «Umid nihollari – 2006» Respublika musobaqasida natija bermasdan qolmadi. Qashqadaryolik sport gimnastikachilar nufuzli musobaqani faxrli uchinchi o'rin bilan yakunlashdi.

Natijada qashqadaryolik gimnastikachilarning g'alabasi tufayli Xayrulla Jabborovning mashg'ulotlariga keluvchilar keskin ko'paydi.

Farzandlariga g'amxo'r davlatda yashayotganimizning isboti ko'p. 2006-yilda Shahrizabzdagi «Xisor» o'yingohi huzurida bolajonlar uchun gimnastika zali qurilishi ayni muddao bo'ldi. Bugun bu yerda 84 nafar sport gimnastikasi ixlosmandlari shug'ullanishmoqda.

Murabbiyning sport gimnastikasidan tashqari, taekvando WTB bo'yicha ham mahoratli murabbiy ekaniga ushbu tur bo'yicha o'tgan Respublika musobaqalarida amin bo'ldik.

Ha, O'zbekistonning besh karra chempioni Dilfuza Baratova, Respublika turnirlari g'olibi Dilobar G'aniyeva, Marjona Elmirezayeva aynan Xayrulla akaning shogirdlaridir.

Ammo bu hali hammasi emas. Qahramonimiz Shahrizabz tumani Bolalar va o'smirlar sport maktabi rahbari. Bu futbol maktabini tamomlagan darvozabon Temur Jo'rayev, hujumchilar Zafar va Faxriddin Xolmurodovlarni bugun tanimagan sport ishqibozi bo'lmasa kerak.

Futbol maktabining bu yildan «Sho'rtan» klubiga birlashtirilgani ishlarni yana-da oldinga siljishiga hissa qo'shyapti.

– Uchta sport turi bo'yicha har kuni mashg'ulotlarga qanday ulgurasiz? – so'raymiz murabbiydan.

– Kishi kasbiga mehr qo'ysa, ko'p narsaga ulgursa bo'ladi, – deydi Xayrulla aka. – Ertalab gimnastika bilan shug'ullansam, kechki payt taekvandochilarni musobaqaga tayyorlayman. Kun davomida esa yosh futbolchilar holidan



xabar olaman. Xullas, bolalarni yaxshi ko'rganim bois, ular bilan kun bo'yi ovoraman. Meni quvontirgan narsa shuki, ayni kunlarda shogirdlarim jismoniy tarbiya instituti va sport kollejlarda o'qishyapti. Ya'ni, ular ertaga o'z tumanlariga mutaxassis bo'lib qaytishadi.

Biz sportni, sport ixlosmandlarini bolalarni sevgan, yurtiga, xalqiga xizmat qilishni burchim deb bilgan serqirra murabbiy Xayrulla Jabborovga xayrli ishlarda aslo tolmang, deb tilak bildirdik.

## SPORT KABARLARI

### CHILILIK LIGIONER

Bundan bir necha kun oldin Toshkentning «Paxtakor» jamoasi bilan 1997-yilda o'smirlar o'rtasida jahon chempioni bo'lgan braziliyalik yarim himoyachi Fabio Pinto shartnoma imzolagan edi. U paxtakorchilar libosida mashhur to'rtinchi raqamda maydonga tushadigan bo'ldi. Fabio Pinto milliy chempionatimizda debyut uchrashuvlarini boshlab yuborgan bir paytda, poytaxtning boshqa bir jamoasi «Quruvchi»ga ham okean orti mamlakatidan ligioner futbolchi kelib qo'shildi.

Uning to'liq ism-sharifi Xose Luis Vilyanueva Axumada. U 1981-yil 5-noyabrda Chili poytaxti Santyago shahrida tug'ilgan. Vilyanueva hujum chizig'ida to'p surib, bir necha bor to'purarlik qobiliyatlarini ham ko'rsata olgan. U faoliyati davomida Chilining «Palestino», «Kobreloa», Argentinaning «Rasing», Meksikaning «Morelia» va Braziliyaning nomdor klublaridan biri «Vasko da Gama» jamoalarida to'p surgan. Shuningdek, Xosa Luis Chili milliy terma jamoasi a'zosi bo'lib, to'rt uchrashuvda maydonga tushgan.

### BECHORA RONALDO...

Nega, deysizmi? Gap shundaki, Braziliya terma jamoasi tarkibida ikki bor Jahon chempioni va dunyoning eng yaxshi futbolchisi bo'lib ulgurgan Ronaldo klubsiz qoldi. Xabaringiz bo'lsa, o'tgan mavsumda Ronaldo «Milan» jamoasi bilan bir yillik shartnoma imzolagan edi. Lekin u Milanga kelgandan so'ng, tizzasidan jarohat olib, futbolni bir muddat tark etgan edi. Yaqinda jarohati tuzalib maydonga qaytgan Ronaldoni hech bir jamoa o'z tarkibida ko'rishni xohlamayapti. Hatto «Milan» ham unga yangi taklif bilan murojaat qilmadi. Uning milanliklar bilan tuzgan shartnomasi 1-iyulda yakunlandi. Hozirda 31 yoshli hujumchiga faqatgina Braziliyaning «Flamengo» jamoasi qiziqish bildirmoqda.

### «PEKIN – 2008» DA UCHRASHAMIZ»

Xitoy poytaxti Pekinda o'tkaziladigan XXIX yozgi olimpiada o'yinlari boshlanishiga ham oz muddat qoldi. Shu munosabat bilan Pekinda turli xil tadbirlar va uchrashuvlar tashkil qilinmoqda. Bu galgi tadbir «Pekin – 2008» Olimpia madaniy festivali doirasida uyushtirilib, u «Pekin – 2008» da uchrashamiz» shiorini oldi. Bo'lib o'tgan qiziqarli gala-konsertda 400 dan ortiq xitoylik va xorijlik san'atkorlar, sportchilar ajoyib chiqishlari bilan xitoyliklarni xushnud qilishdi. Bu Olimpia madaniy festivali 1992-yilda bo'lib o'tgan Barselona olimpiadasi o'yinlari davridan buyon har galgi olimpia o'yinlari oldidan o'tkaziladi. Shu paytgacha Pekinda bunday festivallardan beshtasi tashkil etildi. Pekin festivali jahon madaniyati va sivilizatsiyasining turli xil ko'rinishlarini o'zida namoyon qilib, oldingi festivallardan har tomonlama yuqori darajada tashkillashtirilganligini ko'rsatib bermoqda. Olimpiada tashkilotchilari 8-avgustga qadar «Pekin – 2008»da uchrashamiz» shiori ostida qator madaniy tadbirlar o'tkazishni rejalashtirishgan.

Sherali NAMOZOV tayyorladi



**O'YLA, IZLA, TOP!**

Bilimlar konin ochar,  
Yutsangiz, rag'bat sochar.  
Do'stim, qani tezroq chop,  
O'yla, izla, javob top.  
Jarima deb kuyunma,  
Rag'bat deb ham suyunma.  
Savollari shoshirar,  
Bilimingni oshirar.  
Yutqazib qo'ysang ammo,  
Xafa bo'lmagin aslo.  
Ko'proq o'qib-o'rganib,  
Albat bo'lasan g'olib.

*Gulbahor*  
**QURBONBOYEVA,**  
Xorazm viloyati, Urganch  
tumanidagi 3-maktabning  
7-sinf o'quvchisi



**USTOZIM**

Qo'llarimdan yetaklab tutqazib qalam,  
Yosh qalbimga quvonch berib bir olam,  
Goh erkalab, goh koyib misoli onam,  
Bilimlar eshigin ochgan ustozim,  
Dilimga nur, ziyo sochgan ustozim.  
Siz tufayli tanidik ko'hna dunyoni,  
O'rgandik sizlardan odob, hayoni,  
Ongimizga joylab har so'z ma'noni,  
Bilimlar eshigin ochgan ustozim,  
Dilimga nur, ziyo sochgan ustozim.  
Siz tufayli bugun baland parvozim,  
Baralla jaranglar yangroq ovozim,  
Sizga juda baland hurmat, e'zozim,  
Bilimlar eshigin ochgan ustozim,  
Dilimga nur, ziyo sochgan ustozim.


*Zebo* **YUSUPOVA**

Xonqa tumanidagi 35-umumta'lim  
maktab o'quvchilari

**SENI YO'QOTISHDAN  
QO'RQIB YASHADIM**

Bedor o'tgan tunlarim uzundan-uzun,  
Tushimga kiraqol qoshi qunduzim,  
Sen o'zing umidim, yorug' yulduzim,  
Seni yo'qotishdan qo'rqib yashayman.  
Kechalar munajjim bo'ldim o'yingda,  
Paydoman nur bo'lib o'ng-u so'lingda,  
Arzimas shu'laman sening yo'lingda,  
Seni yo'qotishdan qo'rqib yashayman.  
Husningni oydan-da qizg'ondim, netay,  
Rashkingning o'tida qon bo'ldi bag'rim.  
Sevging olovida cho'g' bo'lib ketay,  
Seni yo'qotishdan qo'rqib yashadim.  
Makonim bo'ldi Sahroi Kabir,  
Sog'inchlar ichida titroq oh-sabr,  
Arosatda yondim, kuydim bir umr,  
Seni yo'qotishdan qo'rqib yashadim.

*Barno* **QOZOQOVA**



**ZAMINDAGI  
YULDUZ BO'LSAM...**

Umr go'yo yonayotgan sham,  
Bir kun albat o'chmog'i ayon.  
G'animatdir o'tayotgan dam,  
O'zligingni etgin namoyon.  
Olamning tosh-tarozusi bor,  
Adolatdir uning mezoni.  
Savob ishing bo'lsin-da bisyor,  
Yurak bo'lsin himmatning koni.  
Oqshomlari osmonga boqsam,  
Yulduzlar yoniga chorlaydi go'yo.  
Niyatim – zaminning yulduzi bo'lsam,  
Bilaman, orzuim bo'lmagay ro'yo.

*Zebo* **ISMOILOVA,**  
Xiva tumani

**Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.**

Ilon Vernon amaki va Dadli tomonga boshini irg'adi-da, ko'zlarini shippga qaratdi. Keyin Garriga go'yo «har kuni shu ahvol», degandek qarab qo'ydi.

– Tushunaman, – g'oldiradi Garri, garchi qalin oyna orasidan ilon uning gapini eshitayotganiga amin bo'lmasa ham. – Hoynahoy, bu juda jonga tegsa kerak.

Ilon boshini tez-tez tebratdi.

– Aytmochi, asli qayerliksiz? – qiziqdi Garri.

Ilon dumini ko'tarib, oyna yonida osilgan lavhachaga nuqdi va Garri shu zahoti nigohini o'shanga qaratdi. «Boa konstriktor, Braziliya», o'qidi u.

– Hoynahoy, u joy bu yerga qaraganda yaxshiroq bo'lsa kerak?

Boa konstriktor dumini yana lavhacha tomonga silkidi va Garri o'qidi:

«Ushbu ilon hayvonot bog'ida dunyoga kelgan va shu yerda o'sib ulg'aygan».

– Ha, tushundim, demak, Braziliyada sira bo'lmagan ekansiz-da?


Ilon boshini liqillatdi. Ayni o'sha lahzada Garrining orqasida Pirsning dahshatli hayqirig'i olamni buzdi, Garri va ilon kutilmagan ovozdan cho'chib tushdilar.

– Dadli! Janob Durs! Tezroq bu yerga keling! Ilonga qarang! U nimalar qilayotganiga ishonmaysiz!

Bir lahzadan so'ng pishillab va hansiragancha oyna oldiga Dadli yetib keldi.

– Hoy, yo'qol bu yerdan, – to'ng'illadi u Garrining biqiniga qattiq turtib.

Zarbn kutmagan Garri beton polga yiqilib tushdi. Shundan keyin sodir bo'lgan voqealar shunday tezlik bilan yuz berdiki, bu qanday ro'y berganini hech kim tushunmadi: birinchi lahzada Dadli va Pirs oynaga yopishgancha turishardi, bir soniyadan keyin esa dahshatli



o v o z d a  
qichqirgancha,  
undan o'zlarini  
ortga olishdi.

Garri lol qolganidan og'zi ochilib o'tirib qoldi, ortidagi ilon o'tirgan oyna birdan g'oyib bo'lgandi. Bahaybat ilon kulchali doiralarni y o z i b o'rmalagancha zindonni tark etarkan, odamlar

baqirib-chaqirib hayvonot bog'idan yugurib chiqardi.

Ilon shiddat bilan yonidan o'rmalab o'tgan chog'ida uning vishillab gapirganini eshitganiga Garri ont icha olardi.

– Men Braziliyaga jo'nab ketyapman... R-r-rahmat, do'stim...

Hayvonot bog'i egasi dong qotgandi.

– Axir bu yerda oyna bor edi-ku, – tinimsiz takrorlardi u. – Oyna qayga gum bo'ldi?

Hayvonot bog'ining direktori shaxsan o'zi Petunya xolaga quyuq damlangan shirin choy tutgancha, qayta-qayta uzr so'rardi. Dadli va Pirs shu qadar qo'rqib ketganidan sira bo'lmagan uydirmalar to'qib tashlashdi. Ilon ularning yonidan o'rmalab o'tayotganida oyoqlarini ushlamoqchi bo'lganini Garri ko'rgan emish, biroq, ular Vernon amakining mashinasida o'tirganlarida ilon Dadlining oyog'ini tishlab olay debdi, Pirs esa ilon uni bo'g'ishiga uringani haqida gapirardi. Ammo Garri uchun yomon tomoni shu bo'ldiki, nihoyat, tinchlangan Pirs birdan aytib qoldi:

– Garri esa u bilan gaplashdi, to'g'rimi, Garri?

Vernon amaki Pirsning onasi o'g'lini olib ketishini kutib turdi-da, shu mahalgacha uning borligini payqamaslikka tirishgan Garriga o'girildi. U shu qadar g'azablangandiki, hatto gapirishga ham qiynalardi.

– Bor... qaznoqqa... o'sha yerda o'tir... hech qanday yeguliksiz. – U oromkursiga gursillab o'zini tashlashidan avval aytishni uddalagan, aytgan bor gapi shu bo'ldi hamda yugurgilab kelgan Petunya xola unga anchagina miqdorda brendi quyib berdi.

Birmuncha keyinroq, qorong'i qaznoqda yotgan

Garri soati yo'qligiga achindi. U hozir soat necha bo'lganini bilmasdi va Dursllar uxlab qolganiga amin emas edi. Mabodo, ular yotgan bo'lishsa, biror-bir yegulik izlab oshxonaga chiqishga ham tayyor edi.

Garri Dursllarnikida deyarli o'n yil to'liq mahrumlik va notavonlikda yashagani haqida o'ylandi. U ota-onasi avtohalokatda halok bo'lganidan beri o'zining deyarli butun umrini bularnikida o'tkazdi. U na o'sha avtohalokatni, na o'sha mashinada o'zi ham bo'lganini eslolmasdi. Ba'zan u qorong'i qaznoqda yotib xotirasidan nimanidir izlab topishga uringanida, uning ko'z o'ngida g'alati ko'rinish: ko'zni qamashtirar darajada yashil chiroq nuri va peshonasida kuydiruvchi og'riq namoyon bo'lardi. Garchi u yerda yashil chiroq qayerdan paydo bo'lganini tushuntirib berolmasa ham, aftidan, bu aynan halokat paytida ro'y bergan.


U o'zining ota-onasini ham eslolmasdi. Xolasi va pochchasi ular haqida sira so'zlab berishmagandi hamda bu to'g'rida uning savol berishi taqiqlangandi. Dursllar uyida uning ota-onasining suratlari ham yo'q edi.

Garri kichikroqligida ko'pincha Dursllar uyida uning biror-bir uzoq va noma'lum qarindoshi paydo bo'lib, uni bu xonadondan olib ketishini orzulardi. Biroq, bu orzu ushalmadi-ushalmadi, uning yagona qarindoshi Dursllar edi va u shu yagona orzusidan umidini uzdi. Lekin unga butunlay yot va noma'lum kishilar o'zlarini go'yo uni yaxshi biladigandek ko'rsatar yoki u bunga ishonib qo'ya qolishni xohlardi.

Tan olish kerak, ular juda g'aroyib kimsalar edi. Bir kuni ular Petunya xolasi va Dadli bilan do'konga kirganlarida, baland siyohrang silindr kiygan mittigina odam unga ta'zim qildi. Petunya xola shu zahoti g'azabdan titrab, alam bilan Garridan bu kishini tanish-tanimasligini so'radi, keyin uni va Dadlini ushlagancha hech nima xarid qilmasdan do'kondan yugurgilab chiqib ketdi. Bir safar avtobusda egniga butkul yashil kiyim kiygan, ko'rinishi telbasifat ayol unga quvonch bilan qo'l silkitgandi. Yaqinda esa ko'chada uning yoniga uzun qizil ridodagi boshi kal kishi kelib, qo'lini siqdi va indamasdan ketdi. Eng sirli tomoni shunda ediki, Garri ularni diqqat bilan ko'rib olmoqchi bo'lgan lahzada bu odamlar g'oyib bo'lib qolardi.

*Gulchehra SA'DULLAYEVA*  
tarjimasi

**Davomi bor**



Parkent tumanidagi 1-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi Surayyo Ma'murboyeva iste'dodli yoshlarimizdan biridir. U Surxi mahallasida tug'ilgan, bolaligidan betakror, go'zal Parkentning bahavo havosidan simirib, tabiatiga maftun bo'lib, hayratlar olamida yashab kelmoqda. Bu go'zal manzaralar qizaloqqa boshlang'ich sinfda o'qishni boshlagandayoq yozish uchun ruchka, chizish uchun rangli qalamlar tutqazdi. Rasm muallimasi Gulmira Yusupova oq qog'ozdagi tasvirlarni kuzatar ekan, Surayyodagi tasviriy san'atga qiziqish shunchaki havas emasligini angladi. Qizaloqni rag'batlantirdi, chizgan rasmlari bilan sinf xonalarini bezadi. Asta-sekin yosh iste'dod egasi ko'pchilik nigohini tortdi. Endi Surayyo ustoz Mirtoji Jamolovdan natyurmort, miniatyura, grafika sirlarini qunt bilan o'rgana boshladi.



Suratda: Surayyo Ma'murboyevaning ko'rik-tanlovdagi faoliyatidan lavha.

Tinimsiz izlanish besamar ketmadi. Surayyo chizgan rasmlar turli tanlovlarda og'izga tushdi. U «Yer kurrasida tinchlik», «Tinchlik istar bolalar», «Xotira – eng muqaddas tuyg'u», «Onalarni e'zozlaymiz», «Vatanimning so'lim go'shisi»,

«Baxtiyor bolalik» rasmlar ko'rik-tanlovining maktab va tuman bosqichlarida faxrli o'rnlarni egalladi. Surayyo yozgi ta'tilda ham ijod bilan band. 26-27-iyunda Respublika yoshlarining «Bioekosan» o'quv-uslubiy majmuasida bo'lib o'tgan «Tabiat: kecha, bugun, ertaga» anjumanida ishtirok etdi. Surayyoning «Tabiat va suv» mavzusidagi surati faxrli o'ringa loyiq deb topildi. Uni Respublika anjumaniga olib kelgan Parkent tumani Xalq ta'limi bo'limi uslubchisi Odina opa, onasi Manzura opa ham xursand. Parkentlik jo'shqin, ehtirosli shoir Mahmud Toirov, shoira Sharifa Salimova kabi iste'dodlar davomchisi musavvir qiz Surayyo ham yetishib, munosib izdosh bo'lishga harakat qilmoqda. Umid qilamizki, Parkentning tabiat, o'simlik va hayvonot olami oddiy qishloqning jozibador tog'-u toshlari, oqar suvlari, har bir xonadonning tandiri-yu qo'y-echkilaridan, yantog'-u gullaridan nafosat axtarib, biz anglamagan go'zallikni topib oq qog'ozga naqshlayotgan bu qizimizdan ajoyib rassom yetishib chiqadi.

Quvonarlisi, rassom qiz «Zulfiyaxonim qizlari» ko'rik-tanlovining tuman bosqichida g'olib bo'lib, viloyat bosqichiga o'tibdi. Tinib-tinchimas qiz bo'sh vaqtlarida tikuvchi onasi tikkan kiyimlarini munchiq bilan bezaydi, pishiriqlar pishiradi. Stol tennisi, qo'l to'pi bilan shug'ullanadi, singlisi va ukalariga qaraydi. Ustoz Nodira Yusupova buyurgan topshiriqlarni bajarib, tanlovga tayyorgarlik ko'rayotgan, ta'tilning biror kunini ham behuda sarflamayotgan tengdoshingizga havasimiz keldi. Nurli yo'l, porloq kelajak sari odimlayotgan, bo'rsildoq nondek gulgun chehrasiga kulgichlari yarashgan, qora ko'zlari kulib turgan, hayo-ibosi bilan ajralib turgan Surayyo kabi o'zbeqim qizlari yana-da katta zafarlar sari quloq otib kamol topishlarini istaymiz.

Mahmuda ZOIRXON qizi

# RASSOM QIZ

## BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

### BILASIZMI?

Yer yuzidagi suv miqdori 1 milliard 300 million tonnani tashkil etadi. Bu suvning qirqdan bir qismigina iste'molga yaroqli.

\*\*\*

Eng chuqur dara AQSH janubidagi Arizona shtatidagi katta Kon'on hisoblanadi. Uning chuqurligi 2 kilometr, uzunligi 446 kilometrdir.

\*\*\*

Afrika kattaligi jihatidan dunyo qit'alari ichida ikkinchi o'rinda tursa-da, unda eng ko'p, ya'ni 48 ta davlat joylashgan.

\*\*\*

Eng kuchli shamollar yerdan 8-50 kilometr balandlikda esadi. Ba'zan ularning tezligi soatiga 450 kilometrni tashkil etadi.

\*\*\*

Dunyo mamlakatlarida ishlayotgan kompyuterlar soni bir milliarddan oshib ketdi. «Renter» tarqatgan ma'lumotlarga ko'ra, 2014-yilda ularning soni ikki barobarga ortishi kutilmoqda.

\*\*\*

Yer yuzi aholisining soni 2012 yildayoq 7 milliardga yetadi. Eslatib o'tamiz, 6 milliardlik chegarani dunyo aholisi 1999-yilda ortda qoldirgandi.

\*\*\*

Yer yuzidagi mavjud 2000 ilonlardan 1400 tasi odamlar uchun umuman zararsiz.

				Ilk darslik					
Choy navi	Dala malikasi	Oz	Leonardo da Vinchi asari	Chuqurlik	Matonat	Qayta			Sut mahsuli
									Elektrod
	Farhodning ustoz	Maqom	<b>SIRLI SO'Z</b>						
			IR		AR				
			IN		ISH				Shikoyat
			UL		IM				
	Tikuv asbobi	Osiyo cho'li	O'T		IL	Darvozabon			
			BAR		ILA				
			BIR		LIQ	Mebel			Daraxt
			BUZ		LOV				
			BUL		OVA				
		Vaqt o'lchovi	SAD	Popov ixtirosi	PAR				
Raqam asosi			SAB		SIL	To'quv ash-yosi			Rang
			TUZ		CHIL				
			CHIR		SHOM				
			SHIR		QYSH				
	O'lja							Yollanma dehqon	Sport
		Boks qiroli	Bo'yoq	Hayot	Tig'li asbob			Glyoh	Samo
	Yoqilg'i								Ho'l meva

Shakl markazidagi xonaga shunday bir so'z yozing-ki, uni qo'shib o'qilganda, qatorlar bo'yicha yigirma oltita so'z hosil bo'lsin.

Tuzuvchi: F.ORIPOV

# XANDALAR

– Zokir, agar senda shokoladdan tayyorlangan mashina bo'lsa, yeyishni qayeridan boshlagan bo'larding?

- G'ildiragidan.
- Nima uchun?
- Yurib ketmasligi uchun-da.

\*\*\*

Bir bola dorixonaga kirib so'radi:

- Xola, og'riqni qoldiradigan doringiz bormi?
- Qayering og'riyapti?
- Hech qayerim og'rimaydi. Dadam bugun kundaligimni tekshirmoqchi edilar...

\*\*\*

Tarbiyachi sho'xlik qilayotgan bolakayni bir urgandi, u qattiq yig'lay boshladi. Yuragi achishib, konfet berib yupatdi.

– Bog'cha opa, meni yana bitta uring, – debdi konfetini yeb bo'lgan bolakay.

\*\*\*

- Oying qayerda ishlaydilar?
- Bog'chada.
- Kim bo'lib?
- Dilbar Suyunovna bo'lib.

Hamidjon POZILOV,  
Qo'qon 1-akademik-litsey talabasi



## BUGUNNING



### «YANGI AVLOD»LARI

«Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivali g'olibasi Muborak Oripova 1996-yil 24-yanvarda Jizzax shahrida tug'ilgan.

Bolaligidan raqs san'atiga qiziqadi. Raqs malikalari Qizlarxon Do'stmuhammedova, Feruza Solihova, Malika Ahmedova kabi raqqosalarga havas qilib, san'atning shu sohasiga mehr qo'yib ulg'aygan qahramonimiz Muborak kelajakda shifokor bo'lish niyatida.

Shu sababmi, u fizika, kimyo, ingliz tili fanlarini chuqur o'rganmoqda.


– O'z orzuimga erishish uchun ustozlarim berayotgan saboqlarni yaxshi o'zlashtirishim kerak, deb o'ylayman. San'atga bolaligidan qiziqaman. Ammo insonlarga yana-da ko'proq foydam tegishini istayman, – deydi Muborakxon. 2007-yilda g'oliblikni qo'lga kiritgan Muborakxon tanlov davomida ko'plab do'stlar ortirdi, ular bilan muloqot qilish va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Quvonarlisi, tanlovda o'zi sevgan «Lazgi» raqsini ijro etib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

Nazokatxon TOJIBOYEVA

### Shifokor burchagi

## KAMQONLIK

Anemiya (kamqonlik) odam organizmida qonda gemoglobin moddasini umumiy miqdori kamayib ketishi natijasida yuzaga kelgan kasallikdir. Temir yetishmasligidan paydo bo'ladigan kamqonlik ko'p tarqagan kasallik bo'lib, bemor bo'lgan bolani qon zardobida, jigar, taloqda, ilikda temir moddasi kamayib ketadi, natijada gemoglobin hosil bo'lishi buziladi.



Kasallikning klinik belgilari: hid va ta'm buzilishi, bosh aylanishi va og'rig'i, tez toliqib qolish, ishtaha buzilishi, qabziyat kabi belgilar paydo bo'ladi. Bundan tashqari, bemorda teri rangsiz va quruq bo'ladi, tirnoqlar mo'rt bo'lib qoladi, sochlar to'kila boshlaydi. Shu bilan birga, kundalik ovqatda bemorlar sho'r, o'tkir va nordon bo'lgan ovqatlarni yaxshi ko'radilar va iste'mol qiladilar. Kamqonlikda bolalar kesak, tuproq, bo'rni yeganligi ko'p hollarda uchraydi.

Gemoglobinni miqdorini normallashtirish uchun temir preparatlar beriladi. Bu preparatlarni choy, kofe, kakao, sut bilan ichish mumkin emas, chunki ular organizmga temir to'planishiga qarshilik ko'rsatadi.

**Misol:** Ertalabki nonushtadan keyingi achchiq choy temir moddasini so'rilishini 50 foizgacha kamaytirib yuboradi. Biologik temir moddasi pishloq, suzma, tuxum sarig'i, jigar, foliyev kislota moddalarini ko'p miqdorda saqlaydi. Shu tufayli ularni ko'p miqdorda taomlarga qo'shish lozim.

Tohir IBRAGIMOV,  
tibbiyot fanlari doktori, professor

## TOK

Tok tokdoshlar oilasiga mansub, ilashib o'suvchi o'simlik. Tokning 11 turkum 600 dan ortiq turi qayd qilingan. Respublikamizda 3 turkumga mansub 4 tur o'simlik o'sadi. Tok tabiiy holda – sernam o'rmonlarda, vodiylarda, tog' etaklarida hamda daryo bo'ylarida o'zga o'simliklarga ilashib, buta yoki pastak sifatida o'sadi. Barglari yumaloq, panjasimon. Tok may, iyun oylarida gullaydi, gullari mayda, ko'rimsiz, shingilga to'plangan.

Ertapishar (chillaki) tok navlarining mevasi iyuldan boshlab, kechki navlariniki esa oktabrda pishadi. Mevasi har xil shaklda, o'lchamda va rangda, 2-3 urug'li yoki urug'siz, shirin yoki nordon bo'ladi. Tok mevasi xalq orasida uzum deb ataladi. O'zbekistonda tokning 500 ga yaqin navi o'sadi.

Tok mevasi tarkibida 30 % gacha qand (glyukoza va fruktoza ko'rinishida), oqsil, pestin, oshlovchi moddalar, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, B<sub>12</sub>, P, PP darmondorilari, karotin, flavonoidlar, folat kislotasi, shuningdek, mineral tuzlardan kaliy, kalsiy, magniy, fosfor, temir, kremniy, kobalt mavjud.

Tok barglarida glikozidlar, kversitin, organik kislotalar, inozid, aminokislotalar, karotin, S, P darmondorilar va 2% gacha qand moddasi bor.

Tok uzumining urug'lari tarkibida 20 %ga yaqin yog', 8 %ga yaqin oshlovchi moddalar, 5,4% flabafenlar, vanilin saqlanadi. Uzum qadim zamonlardan beri xalq tabobati amaliyotida keng qo'llanib kelinmoqda.

Xalq tabobatida uzum bilan qovuq, buyrak, jigar, yurak, me'da-ichak yo'li kasalliklari davolanadi. Uzum ozuqa beruvchi ne'mat, tanada qonni yaxshilaydi. Yana uzum urug'lari siydik haydovchi vosita sifatida ham qo'llangan. Mayiz esa yana-da quvvatbaxsh ta'sir ko'rsatadi, yaxshi qon ko'paytirishga vositachilik qiladi.

Nigora JO'RAYEVA,  
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti  
qoshidagi akademik-litsey o'quvchisi



BOSH MUHARRIR:  
To'liqin HAYITOV

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV  
(«O'zbekiston» NMIU Bosh  
muharrir o'rinbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari)

Manzillimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

Rassom:  
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyida  
chop etildi.  
Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
Adadi - 22753  
Buyurtma N: J 5599

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:  
Zuhra  
MUXSIMOVA  
Navbatchi:  
Gulyuz  
ORIFJONOVA